



Sultanova Shaxnoza Gayratovna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

JAMIYATDA AYOLLAR FAOLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga nisbatan moslashuvchanligi jarayonida yuz beradigan psixologik o'zgarishlar keltirib o'tilgan. Asosiy e'tibor hozirgi kungacha turli soha vakillarining bahs mavzusiga aylangan xotin-qizlarning ijtimoiy faollik tushunchasi borasidagi turlicha qarashlar, keltirilgan asoslar va talqinlarga qaratilgan. Shunga muvofiq, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq psixologik xususiyatlar, unga ta'sir qiluvchi omillar, qadriyatlar va hayotiy strategiyalari nazariy, amaliy jihatdan muallif tomonidan ajratib ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy faollik, ijtimoiy rollar, qadriyat, rivojlanish bosqichlar, xulq-atvor me'yorlari, gender munosabatlar, shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, tashabbuskorlik, iqtisodiy qaramlik, faoliyat dixotomizatsiyasi, tashqi va ichki determinantlar.

Аннотация. В статье описываются психологические изменения, происходящие в процессе адаптации женщин к политическим, социальным и экономическим реформам, проводимым в обществе. Основное внимание сосредоточено на различных взглядах, причинах и интерпретациях понятия женской социальной активности, ставших предметом дискуссий представителей различных сфер. В соответствии с этим психологические особенности, связанные с социальной активностью женщины, влияющие на нее факторы, ценности и жизненные стратегии выделяются автором с теоретической и практической точек зрения.

Ключевые слова: социальная активность, социальные роли, ценность, этапы развития, нормы поведения, гендерные отношения, социально-психологические характеристики личности, инициатива, экономическая зависимость, дихотомизация деятельности, внешние и внутренние детерминанты.

Annotation. The article describes the psychological changes that occur in the process of women's adaptation to political, social and economic reforms carried out in society. The main attention is focused on different views, causes and interpretations of the concept of women's social activity, which have become the subject of discussions among representatives of various fields. In accordance with this, the psychological characteristics associated with the social activity of a woman, the factors influencing her, values and the author from a theoretical and practical point of view distinguishes life strategies.

Keywords: social activity, social roles, value, stages of development, norms of behavior, gender relations, socio-psychological characteristics of a person, initiative, economic dependence, dichotomization of activity, external and internal determinants.

Kirish. Jamiyatda yuz beradigan har qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar shaxsning bevosita shaxslararo munosabatlarida o'zining ijobiy hamda salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu ta'sirlar esa, o'z navbatida, jamiyatning katta potentsiali hisoblangan xotin-qizlarning ruhiyatiga, shaxslararo munosabatiga, ulardagi "Men-konsepsiyasi"ning salbiy emotsional izdan

chiqishiga, avvalgi qadriyatlari va ideallarining yo'qolishiga, hayotiy strategiyasi va istiqbollarning "yemirilishi"ga olib keladi. Bu esa ularning hayotida yangi strategik qarashlariga, shu bilan birga, shaxs sifatida kamol topishiga to'sqinlik qiladi. Shaxsda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ko'rsatkichlarining yomonlashishi esa shaxslararo munosabatining adekvatligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu

bilan birga, xotin-qizlarda bezovtalikning, nizolilikning oshishiga, emotsional barqarorlik va tashabbuskorlikning pasayishiga hamda ijtimoiy faollikning susayishiga sabab bo'ladi.

Shu bois bugungi kunda xotin-qizlarning hayotida yangi strategik qarashlarining shakllanishiga, shaxs sifatida kamol topishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish, ulardagi shaxs ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rsatkichining yomonlashishi, bezovtalilik va nizoliligining oshishi, emotsional barqarorligi va tashabbuskorligining pasayishi hamda ijtimoiy faolligining susayishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi omillarning sabablarini aniqlash va oldini olish qator tadqiqotlarni taqozo etadi.

Asosiy qism. Ma'lumki, inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida ko'plab ijtimoiy aloqalarga kirishadi, shu bilan birga, qator ijtimoiy-psixologik rollarni bajaradi. Natijada hayotining turli davrlarida mas'uliyati ortib, har doim ham hal etish imkoni bo'lmagan ko'plab muammolar girdobida qoladi. Amerikalik psixolog Robert Keyvigxerst insonning hayoti davomida ahamiyatli bo'lgan rivojlanish bosqichlari sifatida: *oilaviy hayotga tayyor bo'lish, turmush o'rtog'ini tanlash, oila qurish, farzand tarbiyalash, uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, kasbiy faoliyatni boshlash, fuqarolik majburiyatlarini qabul qilish, kongenial ijtimoiy guruhlarda bo'lish, hayotda ma'lum darajaga erishish, band bo'lishning muqobil usulini tanlash, farzandlariga mas'uliyatli va baxtli bo'lishlarida ko'maklashish, er-xotin munosabatlarida shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, yoshi kattalar bilan o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, sog'lig'i va jismoniy kuchini muvofiqlashtirish, qoniqarli hayot sharoitini ta'minlash* kabi qator vazifalarni kiritadi¹.

Bu kabi vazifalarni amalga oshirish shubhasiz, xotin-qizlarning ruhiyatida, xulq-atvorida, ijtimoiy munosabatlarida turli ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Oxirgi yigirma yil davomida turli ijtimoiy-gumanitar soha vakillari tadqiqotlarida xotin-qizlarning xulq-atvori me'yorlari, ijtimoiy roli, jamiyatdagi xatti-harakatlari darajasi, stereotiplari keng o'rganilmoqda. Mazkur o'rganishlar natijasi esa shaxs ijtimoiy faolligining asosi tashqi va ichki

determinantlariga ko'ra doimiy o'zgaruvchanligini ko'rsatmoqda.

Psixolog Rail Shamionov fikricha, tashqi determinantlar – bu insoniyat, madaniyat, fan, ishlab chiqarishning tarixiy rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan normalar, an'analar, real hayot sharoitlari hisoblanadi. Ular ijtimoiylashuvning turli sharoitlarida, aniq guruhlarda o'ziga xosligini ochib beradi. Shaxs shakllanishining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan institutsional determinatsiyasi shaxsning tashqi holatlarini tashkil qiladi. Biroq "ijtimoiy ma'lumotlar" qadriyatlar, xususiyatlar, xatti-harakatlar namunalari va boshqalar shaklida nafaqat shaxsiyatdan tashqarida mahalliydashadi. Shaxs o'z obyektiv parametrlarining ijtimoiylashuv jarayonlari "sub-ma'lumotlari"ni faol ravishda namoyon etadi.

Ijtimoiylashuv uchun nafaqat individual shakllanishlar, balki qadriyatlar, davlatlar va xususiyatlarning tuzilishi, shaxsning kasbiy yo'nalishi va boshqalar bo'lgan ichki determinantlar ham muhim ahamiyatga ega, ya'ni uning ichki sharoitini tashkil etuvchi hamma narsa ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadi. Shaxsda xulq-atvor, faoliyat, munosabatlar, o'zaro munosabatlardagi barcha o'zgarishlar ijtimoiylashuvning ma'lum bir yo'nalishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va shu bilan birga, bu jarayonda uning subyektivligini belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, shaxsning ichki determinantlari shaxs xususiyatlari, qadriyatlar, insonning bilish apparati, motivi, ruhiyatining ichki komponentlarini tashkil etadi.

Shaxsning tashqi va ichki determinantlarini o'rganish ularning mutlaqlashuvi yoki hech bo'lmaganda, korrelyatsiyasi bilan cheklanib qolmaydi.

Shaxsning tashqi va ichki determinantlari uning turli munosabatlarida, shaxsiy hayotidan, mehnatidan va o'zidan qoniqqanlik darajasida namoyon bo'ladi².

Albatta, jamiyat taraqqiyoti doimo yangilanib borar ekan, ijtimoiy fikrlar va qarashlar ham o'zgarib boraveradi. Ilgari ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullangan bo'lsa, endilikda jamiyat ishlarida ayollarning keng ishtiroki odatiy holga aylandi.

¹ Хейвигхерст Р. Психология развития и возрастная психология. / Учебное пособие. 2000.

² Шамионов Р.М. Внешние и внутренние детерминанты личности в процессе социализации. 2002. <https://www.dissercat.com/>

Respublikamizning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra³, bugungi kunda mamlakatimiz xotin-qizlarining 81 foizi jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qiziqishini bildirgan. Shuningdek, ishtirokchilardan xotin-qizlarning ham ishlab, ham oiladagi majburiyatlarini bajarishiga qarashlari so'ralganda, 58 foizi "xotin-qizlar mehnat faoliyati bilan oiladagi majburiyatlarini muvofiq yuritishi lozim", 22 foizi esa "xotin-qizlar ishlashi va karyera qilishi shart" ekanligini bildirgan. Bu ham, o'z navbatida, xotin-qizlarning jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lishga intilishidan dalolat beradi.

Ayollar ijtimoiy-siyosiy faolligining rivojlanishi o'z o'rnida jamiyatda qarama-qarshi tendensiyaning yuzaga keltiradi: bir tomondan, demokratiya va raqobatni talab etadigan bozor iqtisodiyoti ayrim ayollarda individual tashabbuskorlik, kuchli ijtimoiy faollikni shakllantirsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda tabaqalashuv, ishsizlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. Aynan mana shu omillar bugungi kunda xotin-qizlarning muhim qadriyatlarida ham o'z aksini topmoqda. Masalan, ayollardan hayotidagi eng muhim qadriyatlar so'ralganda, ularning 33,2 foizi "farzandlari kamoli, oila a'zolarining salomatligi" hamda "jamiyat hayotida o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish"ni; 30 foizi "jamoat tomonidan tan olinish, obro'ga erishish"ni; 27 foizi esa "ishda karyeraga ega bo'lish"ni keltirib o'tgan.

Jamoat tomonidan tan olinish – bu psixologik nazariya bo'lib, u ma'lum vazifalarni yaxshi bajarish yoki insonning ijobiy xususiyatlarini yuzaga chiqarib, guruhdagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu shaxsning o'zini baholashi, motivatsiyasi hamda o'zi mansub bo'lgan guruhga bo'lgan sadoqatini oshiradi. Ijtimoiy tan olinishi insonning ruhiy va jismoniy salomatligi uchun foydali ta'sirga ega.

Ijtimoiy rivojlanishning yangi davri hayotning barcha sohalarida sifatli o'zgarishlar, dunyoqarashning almashinishi kabi insoniyatning qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi va yangi qadriyatlarni yuzaga keltiradi. Shubhasiz, bu jarayonlar ham xotin-qizlarning ruhiy va ijtimoiy holatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu esa

³ Султанова Ш.Г. Хотин-кизларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнларга мослашувчанлиги ва ularning жамиятда фаоллигини ўрганиш юзасидан тадқиқоти. 2021.

ishtirokchilarning javoblarida ham o'z aksini topdi. Masalan, ishtirokchilardan ko'proq nimadan xavotirlanishi so'ralganda, ularning 49 foizi "ishsiz qolishdan" deya javob bergan. Darhaqiqat, ishsiz qolish, ishsizlik odamlarda mehnat faolligining pasayishiga olib keladi. Bandlik xizmatlari mutaxassislarining fikriga ko'ra, ishsizlar passivlik va qaramlik pozitsiyasi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ishsizlar o'zlarining hayotiy muammolarini hal qilishda yetarlicha faol bo'lmaydilar va mavjud vaziyatni o'zgartirish uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga jur'at etmaydilar⁴.

Rus psixologlari Y.A.Ballayeva: "...ishsiz ayollar ko'pincha iqtisodiy zo'ravonlik holatlariga duch keladilar va iqtisodiy jihatdan turmush o'rtog'iga yoki oila a'zolariga qaram bo'ladilar⁵, deya ta'rifladi, Y.S.Balabanova esa o'z fikrini quyidagicha talqin etadi: "Ayollarning uy yumushlari bilan bandligi ularning pul topish qobiliyatini pasaytiradi, karyera istiqbollarning yomonlashishiga va kam harakatchanlikka olib keladi, ya'ni ularning kasbiy sohadagi imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa ayollarning turmush o'rtog'iga iqtisodiy qaramligini kuchaytiradi"⁶.

Iqtisodiy qaramlik o'z o'rnida ayollarni oilaviy zo'ravonlikka dosh berishiga, shuningdek, taqiq va manipulyatsiyani boshdan kechirishiga majbur qiladi. Qizig'i shundaki, o'rganishlar natijasida biror ma'lumotga ega va kasbiy faoliyatini yo'lga qo'ygan ayollar oilaviy zo'ravonlikning jismoniy shakllariga kamdan kam duch kelishi kuzatilgan. Sababi bu kabi ayollar – o'zini qadrlash, hurmat qilish, atrofdagilarda o'zini qadrlashga ta'sir qila olish va xatti-harakatlarida moslashuvchanlikning mavjudligi, o'z chegarasini yaxshi himoya qila olishi hamda shaxsiy ehtiyojlarini amalga oshira olish qobiliyatiga egaligidadir⁷.

⁴ Зайцева В.Б. Психологические типы безработных и меры повышения их адаптационного потенциала при трудоустройстве. <http://pfmethod.psy.spbu.ru>

⁵ Баллаева Е.А. Устойчивость современной семьи в России и гендерные отношения // На стоящее и будущее семьи в меняющемся мире. – М.: Экон-Информ, 2015. – С. 193–200.

⁶ Балабанова Е.С. Домашний труд как символ гендера и власти // Социологические исследования. 2005. – № 6. – С. 109–120.

⁷ Край А., Размахова О. Отчаявшиеся домохозяйки: какая связь между финансовой зависимостью и домашним насилием. <https://www.forbes.ru/forbes-woman>

Zamonaviy jamiyat o'zining o'zgaruvchanligi va noaniqligi bilan xotin-qizlarning undagi mavqeyiga bo'lgan nuqtayi nazarini ham o'zgartiradi. Bu esa ularning psixologik xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yosh ayollarning psixologik jihatlarida ifodalangan qadriyat xususiyatlari – hayotda shaxsiy va kasbiy rivojlanish, oilaviy munosabatlar, onalik va jamiyatdagi o'rnini tushunish, anglash, idrok etish hamda qabul qilish bilan tavsiflansa, yetuk yoshdagi ayollarning qadriyat xususiyatlari esa ko'pincha to'plangan hayotiy tajriba bilan tavsiflanadi. Chunki yetuk davrda ayollar hayotga ko'proq moslashadi, ular o'zlariga ishonadilar, yoshligida amalga oshirishga vaqtlari bo'lmagan yutuqlarga ochiq bo'ladilar. Yoshga bog'liq o'zgarishlar ayolning psixologik holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi, qadriyatlari va hayot mazmuniga bo'lgan qarashlarini o'zgartiradi. Shu bilan birga, ayolda shaxsiy qadriyatlar va hayotida ma'noning mavjudligi uning hayot yo'li uchun trayektoriyani belgilab beradi, ya'ni o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini beradi.

“Ayollardagi onalik mafkurasi an'anaviy qadriyat va tabiiy zarurat sifatida ularning zimmasiga ikki tomonlama yuk yuklaydi”, deydi rus psixologi A.L.Shishelyakina. Bu esa qadriyatlar yo'nalishi kontekstida turmushga chiqmagan, ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi sabab ongli ravishda onalikdan voz kechgan yoki ishda karyeraga yo'nalgan ayollarga nisbatan shaxsiy dekompensatsiyalanish, deya baholanadi. Ya'ni turmushga chiqmagan yoki ishda karyeraga yo'nalgan ayollar oilaviy farovonlikni uydan tashqaridagi muvaffaqiyat bilan almashtirganini ko'rsatadi⁸.

Ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi yillarda ayollar xulq-atvori me'yorlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari ayollarning erkaklarga qaraganda mavjud gender munosabatlarini o'zgartiradigan rol xatti-harakatlarning yangi modellarini ko'proq namoyish etishlarini ko'rsatmoqda⁹.

Psixolog I.S.Kon esa bu borada quyidagicha fikrni keltiradi: “Ishlab chiqarish munosabatlari

⁸ Шишелякина А.Л. Фемининность в дискурсивном пространстве российского истеблишмента // Женщина в российском обществе. 2015. – № 1. – С. 62–70.

⁹ Здравомыслова О.М. Семья и общество: гендерное измерение российской трансформации. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – 152 с.

sohasida gender mehnat taqsimotining an'anaviy tizimi asta-sekin vayron bo'lishi erkak va ayolning ijtimoiy va ishlab chiqarish funksiyalari, rollari, kasblari hamda faoliyat sohalari dixotomizatsiyasiga, shuningdek, qutblanishining zaiflashishiga olib keladi. Bu jarayonning yetakchi, harakatchan kuchi esa ayollardir. Chunki ayollar erkaklar kasbini tez egallaydilar”¹⁰.

Bugun jamiyatda o'zini namoyon qilishga intilayotgan ayollar ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki gender farqlar masalasi haligacha o'z yechimini topmagan. Gender-rol stereotiplari ayolning tabiatiga qanchalik mos keladi? Uning shaxsiy individual rivojlanishi va o'zini o'zi namoyon etishiga qanchalik xalaqit beradi? Ma'lumki, an'anaviy va zamonaviy madaniyat xususiyatlarining mavjud gender stereotiplari bir-biriga ziddir. Masalan, an'anaviy nuqtayi nazarga ko'ra, ayollar, eng avvalo, onalik va uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lishi lozim. Zamonaviy nuqtayi nazarga ko'ra, ayollar bugungi kunda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishini taqozo etadi. Bu o'z o'rnida qadriyatlar yo'nalganligining almashinuviga ta'sir qiladi. Shubhasiz, bu, bir tomondan, chinakam ayollik fazilatlarining xilma-xilligiga olib kelsa, boshqa tomondan, ichki gender nizoga, gender noaniqlikka sabab bo'ladi. Natijada ayol o'z taqdiriga nisbatan ekzistensial inqirozga duch kelsa, ayolning rivojlanish ssenariysining buzilishiga olib keladi.

“Ayolning tabiiy taqdiri” masalasi bugungi kundagi eng dolzarb, munozarali masalalardan biridir. Mavjud tendensiyalar va tushunchalarning barcha xilma-xilligini ikkita asosiy yondashuvda ifodalash mumkin. An'anaviy yoki patriarxal deb ataladigan birinchi yondashuvga ko'ra, onalik tabiiy va biologik pozitsiyalar nuqtayi nazaridan tabiatan ayolga berilgan. Shu bilan birga, ayolning tanlash erkinligini, o'zini namoyon etish huquqini cheklaydi.

Feministik yo'nalish tarafdorlarining asarlarida esa boshqacha yondashuv mavjud. Unga ko'ra, o'zini namoyon etish, shaxsiy muvaffaqiyat, kasbiy yutuqlar, martaba, ijtimoiy mavqega ega bo'lish bilan birga, onalik ayolning o'zini namoyon etishiga, “o'zligini yo'qotish”, shaxsiy rivojlanishga to'siq,

¹⁰ Кон И.С. История и теория «мужских исследований» // Гендерный калейдоскоп: курс лекций / под общ. ред. М.М.Мальшевой. – М.: Academia, 2002. – С. 188–242.

qurbon, hayotning odatiy quvonchlaridan mahrum bo'lish deb qaraladi. Natijada onalik qadrining pasayishi, uning qadsizlanishi, avlodlararo rishtalar yo'qolishini yuzaga keltiradi.

Ba'zi ayollar baxtini onalikda deb bilsa, boshqalari esa martaba va ijtimoiy imtiyozlar bilan belgilaydi. Zamonaviy ayollarning muammosi shundaki, u o'ta faol bo'lishga intiladi, vaziyatlarni, hodisalarni va odamlarni o'ziga bo'ysundirishga urinadi.

Ayollarning oila yoki karyerani tanlashi va har ikkalasida ham muvaffaqiyatga erishishi juda qiyin kechadi. Erkaklarda bunaqa tanlov mavjud emas: birinchidan, oila haqida kundalik majburiyatlar ularning zimmasida emas, ikkinchidan, ularning muvaffaqiyatlari aynan karyeraga erishishi bilan baholanadi. Bizning jamiyatda erkak va ayollar o'rtasida tengsizlik muammosi yo'q, ammo ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq muammolar kuzatiladi.

Ayollarning o'zini namoyon qilishi, o'zini anglashi psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biridir. Olib borilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, ayollarning muvaffaqiyati hamda muvaffaqiyatsizligiga qator ijtimoiy, psixologik, psixofiziologik omillar ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Bugungi kunda zamonaviy xotin-qizlarning ruhiyati turli sinovlarni boshdan kechirishi

bilan birga, ko'p tashvishlar, muammolar va majburiyatlar ta'sirida depressiyaga duch kelmoqda. Har qanday inson o'zi bunday muammolarni yenga olmaydi. Natijada ayollarda doimiy asabiylik holati yuzaga kelib, shaxslararo munosabatlarining noto'g'ri qurilishiga va yanada jiddiy muammolarga olib kelishiga sabab bo'ladi. Atrofdagilarning tanqidiy munosabati ularda o'z-o'zini baholashining tushib ketishi hamda ishonchsizligini yuzaga keltiradi. Jamiyatda kechadigan har qanday o'zgarishlar esa xotin-qizlarni ko'p hollarda deyarli erishgan yutuqlaridan mahrum etish bilan bir qatorda, ijtimoiy mavqeyini keskin pasaytiradi. Demokratlashtirish jarayonining boshlanishi esa ularni ijtimoiy ishlab chiqarishdan, faol ijtimoiy hayotdan siqib chiqarilishiga olib keladi. Bu kabi holatlar xotin-qizlarning jamiyatda munosib o'rin egallashga bo'lgan doimiy kurashini yuzaga keltiradi. Bu esa fanda xotin-qizlarning ayni holati, muammolari yuzasidan yangi-yangi tadqiqotlar, izlanishlar olib borilishini taqozo etadi. Har bir rivojlanish davri o'ziga xos muammolarni ilgari surar ekan, fanda esa bu kabi holatlarga yangicha qarash, jamiyat talablari darajasida uni hal etishning turli yo'llari va imkoniyatlarini izlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баллаева Е.А. Устойчивость современной семьи в России и гендерные отношения // На стоящее и будущее семьи в меняющемся мире. – М.: Экон-Информ, 2015. С. 193–200.
2. Балабанова Е.С. Домашний труд как символ гендера и власти // Социологические исследования. 2005. – № 6. – С. 109–120.
3. Зайцева В.Б. Психологические типы безработных и меры повышения их адаптационного потенциала при трудоустройстве. <http://pfmethod.psy.spbu.ru>
4. Здравомыслова О.М. Семья и общество: гендерное измерение российской трансформации. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 152 с.
5. Кон И.С. История и теория «мужских исследований» // Гендерный калейдоскоп: курс лекций / под общ. ред. М.М.Малышевой. – М.: Academia, 2002. – С. 188–242.
6. Край А., Размахова О. Отчаявшиеся домохозяйки: какая связь между финансовой зависимостью и домашним насилием. <https://www.forbes.ru/forbes-woman>
7. Султанова Ш.Г. Хотин-кизларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнларга мослашувчанлиги ва уларнинг жамиятда фаоллигини ўрганиш юзасидан тадқиқоти. 2021.
8. Хейвигхерст Р. Психология развития и возрастная психология. Учебное пособие. 2000.
9. Шамионов Р.М. Внешние и внутренние детерминанты личности в процессе социализации. 2002. <https://www.dissercat.com/>
10. Шишелякина А.Л. Фемининность в дискурсивном пространстве российского истеблишмента // Женщина в российском обществе. 2015. – № 1. – С. 62–70.